

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

Ro'yhatga olindi  
№ BD 60720700-2.01  
2022 yil \_\_\_\_

**TASDIQLAYMAN**  
QarMII rektori  
\_\_\_\_ O.Sh. Bazarov  
2022 yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_

**TEXNOLOGIK JIHOZLARNI HISOBLASH**  
**FAN DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	700 000	- Muhandislik,ishlov berish va qurilish sohalari
<b>Ta'lim sohasi:</b>	720 000	- Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60720700	- Texnologik mashina va jihozlar ( neft-gaz sanoati mashina va jihozlari)

**Qarshi- 2022**

<b>Fan (moduli) kodi</b> <b>TJH2304</b>	<b>O'quv yili</b> <b>2022-2023</b>	<b>Semestr</b> <b>3</b>	<b>ECTS krediti</b> <b>4</b>
<b>Fan (modul) turi</b> <b>TANLOV</b>	<b>Ta'lif tili</b> O'zbek/Rus		Haftalik dars soati- 4
1.	<b>Fanning Nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>
	Texnologik jihozlarni hisoblash	60	60
<p style="text-align: center;"><b>Fanning mazmuni</b></p> <p><b>2.1. O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limgagini o'rni</b></p> <p>“Texnologik jihozlarni hisoblash” fani 5320300- “ Texnologik mashina va jihozlar (Neft va gaz sanoati mashina va jihozlari”) bakalavriyat ta'lif yo'nalishi asosiy ta'lif dasturi o'quv rejasidagi bo'yicha talabalar tanlovi bilan o'r ganiladigan fanlar qatoriga kiradi. O'quv fani o'quv rejasida rejalashtirilgan quyidagi fanlarni bilishga asoslangan: oliy matematika, fizika, kimyo, metrologiya va standartlashtirish, materilashunoslik, nazriy mexanika, elektrotexnika va elektronika, termodinamika va issiqlik texnikasi, gidravlika va gidropnevmayuritmalar, mashinasozlik texnologiyasi asoslari, ashyolarning kimyoviy qarshiligi va korroziyadan himoya kabi fanlarni dastlab o'r ganishlariga asoslaniladi. Fanni o'zlashtirgan talaba texnologik jarayonlardagi qurilmalarning jihozlarining tuzilishi, ularni konstruksiyalashga qo'yiladigan talablar, materiallar tanlash, idish va apparatlarni hisoblashning asosiy tamoyillarini bilgan holda zamonaviy texnik va iqtisodiy talablarga loyiq bo'lgan texnologik jihozlarni loyihalash kompetensiyasini egallagan bo'lishi kerak.</p> <p>5320300- “Texnologik mashina va jihozlar (Neft-gaz sanoati mashina va jihozlari) bakalavriyat yo'nalishi uchun “Texnologik jihozlarni hisoblash” fani asosiy fanlardan bo'lib hisoblanadi va ilmiy va muhandislik fanlarini yagona tizimga birlashtiradi. Fanni o'r ganish mobaynida neft va gaz jihozlarining detallari va yig'malar to'plaminidan iborat yagona tizim deb qaraladi. Bunday yondashish qisqa vaqt ichida hisoblashning asoslarini amalga oshirish imkonini beradi. Texnologik jihozlarning uzoq muddat buzilmasdan ishlashi va qo'yilgan talablar asosida ishlatilishi kabilar ularning zaruriy mustahkamligini va ishonchli ishlashini ta'minlashga yordam beradi.</p> <p><b>2.2. O'quv fanining maqsadi va vazifalari</b></p> <p>Fanni o'qitishning asosiy maqsadi neft va gaz qazib olish va qayta ishlash texnologik jihozlarini yaratish va ularidan foydalanish sohalarida ishlab chiqarish, loyi haviy-</p>			

konstruktorlik va ilmiy tadqiqot faoliyatlari uchun mutahasislarni chuqur tayyorlashdan iborat.

Fanni o'zlashtirgan talaba texnologik jarayonlardagi qurilmalarning jihozlarining tuzilishi, materiallar tanlash, idish va aparatlarni hisoblashning asosiy tamoyillarini balagan holda zamonaviy texnik va iqtisodiy talabalarga loyiq bo'lgan texnologik jihozlarni hisoblash kompetensiyalarini egallagan bo'lishi orqali amalga oshiriladi. Fanni o'rganishda talabalarning tasavvurini shakllantirish sxemalar, konstruksiyalar, hisoblar, loyihalar, samarali foydalanish va jihozlarning ish qobiliyatini oshirishning konstruktiv usullarini o'rganish bilan birga jihozlarning metal va metallmas konstruksiyalari uchun mos materiallar va jihozlarning zaruriy ko'rsatkichlarini hisoblash kabi bilim va ko'nikmalarni egallaydi.

Fanning vazifalari – texnologik jihozlarni turli materiallardan me'yoriy texnik hujjatlarga mos holda loyihalashni, texnologik jihozlarni hisoblash ishchi ko'rsatkichlarini topa olishi, EHM vositasida yaratilayotgan jihozlarning asosiy detal va yig'malarni hisoblash, mustaqil ishlash uchun individual toshiriqlar berish talabalardan fanni qunt bilan o'qish va o'rganish bo'yicha topshiriqlar tartibini tuzish va tahlil qilish kabilarni o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Turli xildagi yuklanishlar ostida bo'lgan listli va sterjenli konstruksiyalarni hisoblash metodlarini;
- Texnik jarayonlarning uzel va detallarni hisoblash uslublarini va ularning hisoblash sxemalarini tuzish asoslarini;
- Turli harakatdagi yuklanishlar ostidagi konstruksiyalarning elementlarini hisoblash metodlari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Mashina va jihozlarni mustahkamlikka va barqarorlashtirishga hisoblash, jihozlarning sifat ko'rsatkichlarini texnik darajalarini miqdoriy baholash qobiliyatiga ega bo'lishi, jihozlarni diagnostikalash ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
- Yangi mashina va jihozlarini iqtisodiy mukammalligini baholashni bilishi va ulardan foydalana olishi va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda jihozlarning zaruriy ish ko'rsatkichlarini ta'minlash va ularni maqbullashtirish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak,
- Neft va gaz sanoatida qo'llaniladigan texnologik jihozlarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash qobiliyatini o'stiradi,
- Amaliy faoliyat jarayonli yondashuv bilan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni boyitadi va qo'llash qobiliyatini o'zlashtiradi;

- Texnologik jihozlarning mexanik va texnologik imkoniyatlarini, o‘ziga hos xususiyatlarini va ular yordamida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarni, nazariy asoslarini bilan holda, ularning tuzilishi, hisobi ularni standartlashtirish haqida bilishi;

Fan talabalarning neft va gaz qazib olish va dastlabki qayta ishlashda qo‘llaniladigan barcha turdagи jihozlarning ishlashi va ish unumdorliklarini oshirish usullarini, jihozlarni ishlatishda jihozlarning zaruriy parametrlarini hisoblash, jihozlarning metal va metalmas konstruksiyasilarini uchun mos materiallarni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

### **2.3 Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)**

#### **1-modul. Texnologik jihozlarni hisoblashning asosiy prinsiplari va asoslari.**

##### **1-mavzu. Fanga kirish. Texnologik jihozlarni hisoblashning umumiyligi prinsiplari.**

Fanning maqsadi va vazifalari. Texnologik mashinasozlikda standartlashtirish hajmi va tarkibi. Yagona sistemalar: konstruktorlik hujjatlari (ESKD); ishlab chiqarishni texnik tayyorlash (ESTPP); material va buyumlarni korroziya va eskirishdan himoyalash (ESZKS).

Sistemalar mahsulot sifat ko‘rsatkichlari (SPKP), mehnat xavfsizligi standartlari (SSBT). «Davlat texnika nazorati» ning me’yor va talablari.

**2-mavzu. Nostandard texnologik jihozlarni yaratishning asosiy bosqichlari:** TZ, TP, EP, KD. Hisoblash turlari, texnologik jihozlarni texnologik va mustahkamlikka hisoblashning asosiy maqsadi va vazifalari.

**3-mavzu. Texnologik jihozlarni hisoblash uslublarining asoslari, loyihalashtirish sistematik yondashish elementlari, konstruktorlik faoliyatining psixologik tomonlari.** SAPR vositasida optimal konstruksiyalarni yaratish tushunchasi: ma’lumotlar banki, matematik modellari, grafoqurishlar. Neftni qayta ishlash va neftkimyo jihozlarida ishlatiluvchi asosiy konstruktionsion materiallar, ularning turlari. Yangi va kelgusida ishlatiluvchi materiallar.

##### **2-modul. Yupqa devorli idish va apparatlar va ularning mustahkamlik hisobi.**

**4-mavzu. Yupqa devorli idish va apparatlar.** Asosiy ma’lumotlar. Apparatlarning tuzilishi, hisobi va tekshirish bo‘yicha umumiyligi ma’lumotlar. Ishchi, hisobiy va tekshiruv bosimlari. Ishchi va hisobiy temperaturalar. Qayta ishlanayotgan muhitning korrozion ta’siri va material xossalalarini e’tiborga oluvchi ruxsat etilgan kuchlanish. Payvand va kovsharlangan birikmalarning mustahkamlik koeffitsientlari. Apparat qalinligiga qo‘shiluvchi hisobiy kattaliklar.

**5-mavzu. Ichki bosim ostidagi yupqa devorli qobiqlar.** Qobiqlar haqida umumiyligi ma’lumotlar. Asosiy tushunchalar. O‘qqa nisbatan simmetrik, bikr qobiq materialining kuchlanishi. Qobiqlarning momentsizlik nazariyasi. Mustahkamlik sharti. Bartovka qilingan konussimon va sferik qobiqlarni hisoblashning xos tomonlari. Gidrostatik bosim ostidagi qobiqni hisoblash.

**6-mavzu. Tashqi bosim, eguvchi moment, bo‘ylama va ko‘ndalang kuch ostidagi yupqa devorli qobiqlar. Yupqalanish ostidagi qobiqni hisoblash.** Muvozanat tushunchasi. Mahalliy va umumiyligi muvozanat. Qisqa tsilindrik qobiqni hisoblash. Qisqa qobiqni hisoblashda devorning optimal qalinligini aniqlash. Optimallik kriteriyesi. Qobiqning hisobiy uzunligi. Qattiqlik halqalari. Bo‘ylama kuch va eguvchi moment

ta'siridagi qobiqni muvozanatga hisoblash. Sferik, elliptik va konussimon tagliklarning muvozanati.

#### **7-mavzu. Plastinalar va yassi tagliklar (qopqoqlar).**

Plastinalar haqida ma'lumotlar. Asosiy tushunchalar. Simmetrik yuklangan doirasimon plastinalar uchun umumiylenglamalar. To'g'ri to'rt burchakli plastinalar. Yuklashning turli yo'llari va hisoblash usullari. "Yassi mustahkamlik qovurg'ali qopqoqlarni hisoblash. Idishlar va apparatlar. Mustahkamlikka hisoblash me'yor va usullari" GOST.

**8- mavzu. Teshiklarning mustahkamlash.** Qobiqlardagi teshiklarni mustahkamlash. Kesiklarni mustahkamlash hisob usullari va konstruksiyalari. Materiallarni kuchlanish holatini e'tiborga olib mustahkamlash hisobi. Turli hisoblash usullarni kuchlanish chegaralari. GOST ning asosiy mazmuni. Teshiklarni mustahkamlash optimal konstruksiyalari.

#### **9-mavzu. Kolonna apparatlar.**

Kolonnali apparatlarni hisoblash. Shamol va seysmik ta'siri kuchlanishlarni hisoblash. Kolonna apparatlarni muvozanati va mustahkamligi. Mustahkamlikka hisoblash me'yor va usullari. Mustahkamlik va muvozanatni ta'minlovchi hisobiy kuchlanishni aniqlash. Kolonna apparatlar korpusida kontakt qurilmalarini mustahkamlashning asosiy prinsiplari. Turli kontakt qurilmalari elementlarini mustahkamlikka hisoblash.

#### **10-mavzu. Appartlarni tayanchlari va straxovkalash qurilmalari.**

Kolonna apparatlarning tayanchlarini loyihalash va hisoblash. Kolonna apparatlarning tayanchlarini OST ga ko'ra tanlash.

Gorizontal apparatlar tayanchlarini loyihalash va hisoblash.

Gorizontal apparatlar uzunligi boyicha tayanchlarni joylashtirishga oid tavsiyalar. Egarli tayanchlarni OST bo'yicha tanlash.

Texnologik jihozlar ayrim elementlarini loyihalash va hisoblash: ilmoqlar, saporalar, shtuserlar: ularni apparatda joylashtirish qoidalari.

#### **11-mavzu. Texnologik jihozlarni hisoblashda kichik siklli yuknalanishlar.**

Texnologik jihozlarni hisoblashda kichik siklli yuknalanishni e'tiborga olish kichik siklli yuknalanishda apparat elementlarining o'ziga xos holatlari. PTM ning asosiy hollari. Qobiq va plastinalarni mustahkamlik bo'linuvchi va bo'linmaydigan birikmalari.

#### **3- modul. Qalin devorli idish va apparatlar.**

#### **12-mavzu. Qalin devorli idish va apparatlar.**

Asosiy ma'lumotlar. Qalin devorli apparatlarning tuzilishi, ularning ishlatalishi. Me'yoriy parametrlar: hisobiy bosim va temperatura, payvand birikmalarning mustahkamlik koeffisienti. Materialning davomiy mustahkamligi va korpusning konstruksiyasiga bog'liq holdagi ruxsat etilgan kuchlanishlar.

#### **13- mavzu. Qalin devorli apparatlarning elementlari.**

Yuqori bosim apparatlarining qismlari: qobiqlar, tagliklar, flaneslar. Turli silindrik qobiqlar. Qopqoqlar konstruksiyalari.

#### **14-mavzu. Qalin devorli qobiqning kuchlanishi.**

Tashqi va ichki bosim ta'sirida halqasimon, radial va meridian kuchlanishlarni aniqlash. Kuchlanish epyuralari. Yuqori bosim apparati devorining qalinligini maksimal kuchlanishlar usuli boyicha hisoblash. Usulning kamchiliklari. Korpuslarni chegaraviy usuli bo'yicha hisoblash. Qalin devorli silindrda temperatura kuchlanishlari. Qalin devorli silindrik qobiqlarni bosim va issiqlikning bir vaqtida ta'siri etishda hisoblash. Yuqori bosim apparatlar qobiqlarining qismlari. Avtofrettaj. Qavariq va yassi taglik va qopqoqlarni hisoblash. GOST ning asosiy mazmuni.

#### **15-mavzu. Yuqori bosim apparatlarining zatvorlari.**

Yuqori bosim apparatlarining zatvorlari. Ularning ishlatalish sohalari, ishlash sharoitlari, mustahkamlik va germetiklikka hisoblash usullari.

#### **2.4. Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlarda o'tilgan ma'ruzadagi mavzular hisoblab, sinab, bajarib ko'rildi. Talabalar amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

1-mavzu. Ichki bosim ostidagi payvandlangan apparat elementlarini mustahkamlikka hisoblash.

2-mavzu. Ichki bosim ostidagi yupqa devorni simmetrik qobiqda kuchlanishlarni hisobi

3-mavzu. Qobiqlarning tutashish joylarida (chegaraviy masala) apparatni mustahkamlikka hisoblash: Deformatsiyalarni mutanosiblik sharti.

4-mavzu. Apparat korpusi konstruksiyasining tutashish elementlarini mustahkamlikka hisoblash

5-mavzu. Tashqi bosim ostidagi apparat elementlarini mustahkamlikka hisoblash.

6-mavzu. Mustahkamlik va barqarorlik shartiga ko'ra vertikal apparatning korpusining devor qalinligini hisoblash

7-mavzu. Qobiqlardagi teshiklarni mustahkamlikka hisoblash.

8-mavzu. Yuqori bosim apparatlari elementlarini temperatura ta'sirini e'tiborga olib hisoblash.

#### **2.5.Laboratoriya mashg'ulotini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.**

1. Ichki bosim ostidagi yupqa devorni simmetrik qobiqda kuchlanishlarni tarqalishini tadqiqoti

2. Turli shaklli qopqoqlardagi kuchlanishlarni tadqiqoti

3. Yupqa devorli apparat korpusidagi ichki bosim o'q bo'yicha siuvchi kuch va eguvchi momentdan hosil bo'lgan kuchlanishni tadqiqoti

4. Flanetsli birikmlarning germetikligini tadqiqoti

5. Silindrik qobiq muvozanatining tadqiqoti

6. Bir va ikki qatlamlı apparat korpusi yupqa devordagi kuchlanish tadqiqoti.

7. Yuqori bosim apparatlari elementlarini temperatura ta'sirini e'tiborga olib hisoblash.

#### **2.6. Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi)**

Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi) rejalashtirilmagan.

#### **2.7. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Tavsiya etilayotgan mustaqil ish mavzulari.

1. Neftgaz apparatlarini tayyorlash uchun materiallar.

2. Korroziyaga bardoshlilik ko'rsatkichlari.

3. Korroziya jarayonining ob'ekt mexanik xossalariiga ta'siri.

4. Past va yuqori temperaturalarda po'latning xususiyatlari .

5. Agressiv muhitlarda po'latlarning xususiyatlari.

6. Legirlovchi qo'shimchalar va ularning ahamiyati.

7. Payvandlab apparatni va germetiklikka sinash.

8. Payvandlab biriktirilgan jihozlarning detallarini va germetikligini sinash.

9. Gidravlik va pnevmatik sinashlar.

10. Sinashni o'tkazishga tayyorlash va texnologiyasi.

11. Turli yuklanish va mustahkamlashlarda turli va yassi qopqoqlarni hisoblash.

12. Flanetsli birikmalar bolt va shpilkalaridan temperatura kuchlanishlari.

13. Flanesli birikmalar bolt va shpilkalarida harorat ta'sirida kuchlanishlar.

14. Qalin devorli apparatlar konstruksiyalari, ularni tayyorlash va mustahkamlikka sinash texnologiyasi.
15. Futerovkalash, materiallarni tanlash, holatini nazorat qilish almashtirish.
16. Qobiqlardagi teshiklarni mustahkamlikka hisoblash.
17. Yuqori bosim apparatlari elementlarini harorat ta'sirini e'tiborga olib hisoblash.
18. Kolonnali apparatlar korpusida kontakt qurilmalarini mustahkamlashning asosiy prinsiplari.
19. Gorizontal va 7ertical apparatlar tayanchlarini hisoblashning nazariy asoslari.
20. Neftni qayta ishslash va neftkimyo jihozlarida ishlatiluvchi asosiy konstruksion materiallar.
21. Neftni qayta ishslash va neftkimyo jihozlarida ishlatiluvchi konstruksion materiallar turlari.
22. Qisqa silindrik qobiqnini hisoblash.
23. Plastinalar va yassi tagliklar (qopqoqlar).
24. Yuqori bosim apparatlar qobiqlarining qismlari.
25. Yuqori bosim apparatlarini mustahkamlik va germetiklikka hisoblashning nazariy asoslari.
26. Legirlovchi qo'shimchalar va ularning ahamiyati.
27. Yuqori bosim apparatlarining ishlatilish sohalari.

**Fanni o'r ganish natijalari(shakllanadigan kompitensiylar):**

- 3.
- turli xildagi yuklanishlar ostida bo'lgan listli va sterjenli konstruksiyalarni hisoblash metodlarini;
  - texnologik jarayonlarni uzel va detallarni hisoblash uslaublarini va ularning hisoblash sxemalarini tuzish asoslarini;
  - turli harakatdagi yuklanish ostidagi konstruksiyalarning elementlarini hisoblash metodlari haida tasavvurga ega bo'lish;
  - mashina va apparatlarni mustahkamlikka hisoblash;
  - yangi mashina va apparatlarni loyihalashning zaruriyati va iqtisodiy mukammalgini baholashni bilishiva ulardan foydalana olishi.

**talaba bilishi kerak:**

- turli xildagi yuklanishlar ostida bo'lgan listli va sterjenli konstruksiyalarni hisoblash metodlarini;
- texnik jarayonlarning uzel va detallarni hisoblash uslublarini va ularning hisoblash sxemalarini tuzish asoslarini;
- turli harakatdagi yuklanishlar ostidagi konstruksiyalarning elementlarini hisoblash metodlari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- mashina va jihozlarni mustahkamlikka va barqarorlashtirishga hisoblash, jihozlarning sifat ko'rsatkichlarini texnik darajalarini miqdoriy baholash qobiliyatiga ega bo'lishi, jihozlarni diagnostikalash ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;

**talaba bilimga ega bo'lishi kerak:**

- texnologik jihozlarning tuzilishi va umumiy prinsiplari;
- texnologik mashinasozlikda standartlashtirish haqida;
- apparatlarning tuzilishi, hisobi va ishchi bosimalari haqida;
- tashqi bosim va hisobiy temperaturalar haqida;
- muvozanat tushunchasi. Mahaliy va umumiy muvozanat to'g'risida umumiy ma'lumotlar

- informatsion-rivojlantiruvchi texnologiyalar, bilimlar tizimini shakllantirishga, yodda saqlash va ulardan foydalanishga yo'naltirigan. Ma'ruzalarni tashkil etish va o'qish hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodlari, sohaga tegishli adabiyotlar va davriy nashrlarni mustaqil o'rganish, bilimlarni mustaqil ravishda boyitish uchun zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llash, shu jumladan axborotlarning texnik va elektron vositalaridan foydalanish, internet resurslariga murojaat qilish;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lism texnologiyalari, o'quv jarayoni mobaiynida ta'lism oluvchilarning turli xildagi qobiliyatlarini hisobga olishni ta'minlovchi, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlovchi, o'quv jarayonida ta'lism oluvchining faolligini rivojlantiruvchi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism texnologiyalari o'qituvchi va talabaning o'zaro individual tezkor-so'rov muloqotida, individual uyga berilgan topshiriqlarni bajarishlarida, o'ta murakkab va munozarali masalalarni yechishlarda, haftalik maslahatlar davomida amalga oshiriladi.

O'quv jarayonini tashkil etishda faol va interfaol ta'lism metodlari: dialog, suhbat, guruhlarda va kichik guruhchalarda ishlash kabilardan foydalaniladi. Ma'ruzalarni o'qishda multimedya texnologiyalarini qo'llash va elektron modulli majmualardan foydalanish nazarda tutiladi. Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishslashlari institut axborot-resurs markazlari, o'quv zallari, Internet tarmog'i resurslari va institut lokal tarmoqlari resurslaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Auditoriya mashg'ulotlari ma'ruza shaklida PK va videoproyektorlardan foydalangan holda, amaliy mashg'ulotlar bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan va laboratoriya mashg'ulotlari bir guruh ikkita guruhchalarga ajratilgan holda har bir guruhchaga bir professor-o'qituvchi tomonidan "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasi amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari xonalarida, hamda institut o'quv poligonida o'rnatilgan burg'ilash va neft-gaz konlari jihozlaridan, laboratoriya stendlaridan, maketlardan, qirqimli modellardan, asl namunalardan foydalanilib o'tiladi.

#### **Kredit olish uchun talablar:**

4 Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'liq aks ettira olish, o'rganiladigan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy , oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.

#### **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

##### **5.1. Asosiy adabiyotlar**

1. Тимонин А.С. Основы проектирования и расчета технологического и природоохранного оборудования. Справочник. В 3-х томах, - Калуга. 2001г.
2. Болтон У. Конструкционные материалы: металлы, сплавы, полимеры, керамика, композиты. Издательство: Додэка, 2004г, 320 с.
3. Соколов Р.С., Практические работы по химической технологии. Издательство Владос. 2004г, 272 с.
4. Михалев М.Ф., Третьяков Н.П., Мильченко А.И., Зобнин В.В. Расчеты и конструирование машин и аппаратов химических производств. Примеры и задачи /под. ред. Михалева М.Ф. / -Л., Машиностроение, 1984г.
5. Соколов В.И. Основы расчета и конструирования машин и аппаратов пищевых производств: М.; Машиностроение. 1983г.
6. Лашинский А.А. Конструирование сварных химических аппаратов. Справочник. - Л.; Машиностроение. 1981г.
7. Вихман Г.Л., Круглов С.А. Основы конструирования аппаратов и машин нефтеперерабатывающих заводов; -М., Машиностроение, 1973г.

8. Кольман-Иванов Э.Э. и др. Конструирование и расчет машин химических производств; -М.; Машиностроение. 1985г.

9. Румянцев О.В. Оборудование цехов синтеза высокого давления. -М.; Химия. 1985г.

### 5.2. Qo'shimcha adabiyotlar

10. Канторович З.Б. Машины химической промышленности. -М.; Машиностроение. 1985г.

11. Голубев А.Н. Торцевые уплотнения. -М.: Машиностроение. 1974 г.

12. Васильцов Э.А., Ушаков В.Г. Аппараты для перемешивания жидкых сред. Справочник. Л.: -Машиностроение. 1979г.

13. Третьяков Н.П. и др. Расчёт и конструирование машин и аппаратов химических производств. Лабораторный практикум., Л.:ЛТИ, 1988г.- 113 с.

### 5.3. Axborot manbaalari

1. <http://www.ziyo.net.uz> Axborot ta'lim tarmog'i

2. <http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi sayti.

3. <http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasi hukumat portal

4. <http://ebiblioteka.uz> Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi sayti

5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) Ta'lim tarmog'i sayti

6. <http://www.dobi.oglib.ru> Neft va gaz electron kutubxonasi

7. [www.neft pererabotka.com.ru](http://www.neft.pererabotka.com.ru) Neft va gaz qayta ishlash elektron ma'lumotlari tarmog'i sayti.

6. Fan dasturi Qarshi mukandislik iqtisodiyot instituti Uslubiy Kengashining 202\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_\_” \_\_\_\_\_ - sonli bayonnomasida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Institut Kengashining 202\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ -sonli buyrug'I bilab tasdiqlangan

#### Fan (moduli) uchun ma'sul:

7. F.A.Salohiddinov- QarMII “Texnologik mashin va jihozlar” kafedrasi katta o'qituvchisi.

M.X.Samadova – QarMII, “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasi stajtor-o'qituvchisi.

8.

#### Taqrizchilar:

1. X.Q. Eshkabilov - QarMII “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasi dotsenti.

2. L.O. Abdullayev "O'zbekneftgaz" AJ Sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi departamenti Xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish, xavf va risklar bo'yicha ishlash bo'limining pudratchi

tashkilotlar bilan ishlash bo‘yicha bosh  
mutaxassis











